

XALQARO IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Botirova Gavhar Bobirjon qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 30-22 guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari har tomonlama tahlil qilinadi. Xalqaro savdo, investitsiya oqimlari, raqamli iqtisodiyot, mintaqaviy integratsiya va barqaror rivojlanish kabi asosiy yo'nalishlar global iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar kontekstida ko'rib chiqilgan. Maqolada shuningdek, geosiyosiy omillar, pandemiya va iqlim o'zgarishi kabi omillarning xalqaro iqtisodiy aloqalarga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Dunyodagi yetakchi iqtisodiy tashkilotlar (Jahon banki, WTO, UNCTAD va boshqalar) tomonidan taqdim etilgan tahliliy ma'lumotlar asosida xalqaro hamkorlikning zamonaviy shakllari va istiqbollari baholanadi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy maydondagi o'rni va ishtiroki alohida e'tiborga olingan. O'zbekistonning global savdo va investitsiya zanjirlariga integratsiyalashuvi, mintaqaviy iqtisodiy tashabbuslarda faolligi, shuningdek, raqamli iqtisodiyot va yashil rivojlanish borasidagi tashabbuslari tahlil qilinadi. Muallif xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish orqali mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy barqarorlik va o'zaro bog'liqlikni ta'minlash mumkinligini ilmiy asoslar bilan isbotlaydi.

Kalit so'zlar: xalqaro iqtisodiy hamkorlik, globallashuv, mintaqaviy integratsiya, raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, investitsiya, O'zbekiston, geosiyosiy omillar, savdo siyosati, global iqtisodiyot.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы современные тенденции развития международного экономического сотрудничества. Основные направления — международная торговля, инвестиционные потоки, цифровая экономика, региональная интеграция и устойчивое развитие — рассмотрены в контексте изменений, происходящих в мировой экономике. Также в статье освещается влияние таких факторов, как geopolитическая обстановка, пандемия и изменение климата на международные экономические отношения. На основе аналитических данных, представленных ведущими международными экономическими организациями (Всемирный банк, ВТО, ЮНКТАД и др.), оцениваются современные формы и перспективы международного сотрудничества.

Особое внимание уделено роли и участию Республики Узбекистан на международной экономической арене. Анализируется интеграция Узбекистана в глобальные торгово-инвестиционные цепочки, активность в региональных экономических инициативах, а также инициативы в области цифровой экономики и «зелёного» развития. Автор научно обосновывает, что укрепление международного экономического сотрудничества способствует обеспечению экономической стабильности и взаимозависимости между странами.

Ключевые слова: международное экономическое сотрудничество, глобализация, региональная интеграция, цифровая экономика, устойчивое развитие, инвестиции, Узбекистан, geopolитические факторы, торговая политика, мировая экономика.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the modern development trends in international economic cooperation. Key areas such as international trade, investment flows, the digital economy, regional integration, and sustainable development are examined within the context of ongoing changes in the global economy. The article also highlights the impact of geopolitical factors, pandemics, and climate change on international economic relations. Based on analytical data provided by leading global economic institutions (such as the World Bank, WTO, UNCTAD, and others), the modern forms and prospects of international cooperation are evaluated. Special attention is given to the role and participation of the Republic of Uzbekistan in the international economic arena. The article analyzes Uzbekistan's integration into global trade and investment chains, its active involvement in regional economic initiatives, as well as its efforts in digital economy development and green growth. The author scientifically substantiates that strengthening international economic cooperation contributes to ensuring economic stability and interdependence among nations.

Keywords: international economic cooperation, globalization, regional integration, digital economy, sustainable development, investment, Uzbekistan, geopolitical factors, trade policy, global economy.

Kirish. Globallashuv jarayonlari tobora jadallahib borayotgan hozirgi zamonda xalqaro iqtisodiy hamkorlik butun dunyo mamlakatlari uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo iqtisodiyoti tobora o‘zaro bog‘liq holatga kelmoqda — bir davlatda ro‘y berayotgan iqtisodiy o‘zgarish yoki inqiroz boshqa mamlakatlarga ham bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bugungi kunda xalqaro munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik nafaqat savdo va investitsiyalar almashinushi bilan chegaralanadi, balki ilm-fan, texnologiya, raqamli iqtisodiyot, infratuzilma rivoji, energetika, ekologiya kabi qator sohalarni ham o‘z ichiga oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik qilish orqali texnologik yutuqlardan foydalanmoqda, yangi ish o‘rnlari yaratilmoqda, mahalliy ishlab chiqarish kuchaymoqda va jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, zamonaviy global chaqiriqlar — iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi va energetika inqirozi — davlatlarni birgalikda harakat qilishga majbur qilmoqda. Bunday sharoitda xalqaro iqtisodiy hamkorlik yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki u umumiy muammolarga yechim topish, barqaror taraqqiyotni ta’minalash va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada xalqaro iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari, uning asosiy yo‘nalishlari, zamonaviy shakllari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi faol ishtiroki va imkoniyatlari haqida ham yuritiladi.

Asosiy rivojlanish yo'nalishlari:

1. Savdo-iqtisodiy integratsiya kuchaymoqda. So'nggi yillarda mintaqaviy iqtisodiy bloklar — Yevropa Ittifoqi (YI), Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC), Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) kabi tuzilmalar faoliyatini kengaytirib, o'z a'zolari o'rtasida savdo to'siqlarini kamaytirishga intilmoqda. Bu jarayon o'zaro ishonchni kuchaytirib, iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda.

2. Raqamli iqtisodiyot va texnologik integratsiya. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xalqaro iqtisodiy hamkorlikning yangi yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Elektron savdo, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari xalqaro biznes yuritishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Raqamli platformalar orqali kichik va o'rta korxonalar ham global bozorlarga chiqish imkoniga ega bo'lmoqda.

3. Barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati ortmoqda. So'nggi yillarda ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash kabi omillar xalqaro iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ko'plab davlatlar va kompaniyalar atrof-muhitni muhofaza qilish, energiyaning muqobil manbalariga o'tish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirmoqda.

4. Xalqaro investitsiyalar oqimining diversifikatsiyasi. Dastlabki bosqichlarda asosan rivojlangan davlatlar o'rtasida kuzatilgan investitsiyalar oqimi hozirda rivojlanayotgan mamlakatlarga ham faol yo'naltirilmoqda. Bu esa global iqtisodiy o'sishning yanada muvozanatli bo'lishiga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari tobora ko'proq xorijiy sarmoya jalb qilmoqda.

5. Geosiyyosiy o'zgarishlar fonida iqtisodiy hamkorlikning yangi formatlari. Global geosiyyosiy muhitda yuz berayotgan o'zgarishlar, savdo urushlari, sanksiyalar va boshqa omillar xalqaro iqtisodiy aloqalarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada davlatlar o'zaro to'g'ridan-to'g'ri bitimlar tuzish, ko'p tomonlama emas, ikki tomonlama hamkorlikka e'tiborni kuchaytirishga intilmoqda.

1- Jadval. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, xususiyatlari va istiqbollari bo'yicha tahliliy jadval

Yo'nalishlar	Asosiy xususiyatlari	Global ta'siri	Istiqbollari
Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya	Erkin hududlari, to'siqlarining kamayishi	savdo boj	Mintaqalararo savdo hajmining oshishi, iqtisodiy uyg'unlik
Raqamli iqtisodiyot	Elektron sun'iy blokcheyn	savdo, intellekt,	Transchegaraviy biznes soddalashadi, yangi bozorlar ochiladi
Barqaror	Yashil	Iqlim	Kichik davlatlar ham global iqtisodiyotga qo'shilishi osonlashadi

Yo'nalishlar	Asosiy xususiyatlari	Global ta'siri	Istiqbollari
rivojlanish	texnologiyalar, karbon neytrallik, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan siyosat	muammolariga qarshi global harakatni kuchaytiradi	bitimlar soni ortadi, ekologik fondlar faollashadi
Investitsion hamkorlik	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoya oqimlari, moliyaviy integratsiya	Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish va ish o‘rinlari kengayadi	Yangi investitsiya yo‘nalishlari, xususan Afrika va Markaziy Osiyoga qiziqish ortadi
Geosiyosiy omillar ta'siri	Savdo urushlari, sinksiyalar, xavfsizlik xavfi	Ba’zi mamlakatlar uchun iqtisodiy izolyatsiya, yangi ittifoqlar bo‘lishi	Diversifikatsiya zarurati ortadi, ikki tomonlama bitimlar ko‘payadi
O‘zbekistonning ishtiroki	Rivojlanayotgan iqtisodiyot, transport-logistika imkoniyatlari, tashabbuskorlik	Mintaqaviy barqarorlik va savdoning markaziga aylanish potentsiali	Global iqtisodiy zanjirlarga chuqrroq integratsiya

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik bugungi kunda faqat iqtisodiy manfaatlar bilan emas, balki siyosiy barqarorlik, texnologik taraqqiyot va ekologik xavfsizlik kabi keng doiradagi masalalarni ham o‘z ichiga olmoqda. O‘zbekiston ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etib, o‘zining iqtisodiy salohiyatini xalqaro maydonda namoyon qilmoqda. Kelgusida xalqaro hamkorlikning yanada chuqurlashuvi, yangi texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot orqali bu sohaning yanada jadal rivojlanishiga olib kelishi kutilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik mavzusi so‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy xavfsizlik, savdo integratsiyasi va global boshqaruvin tizimi kontekstida keng o‘rganilmoqda. Ko‘plab olimlar xalqaro iqtisodiy aloqalarning dinamikasini, bu aloqalarning davlatlar o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini tahlil qilganlar. Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ), BMTning savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiysi (UNCTAD) hamda Jahon savdo tashkiloti (WTO) tomonidan e’lon qilinayotgan yillik hisobotlar xalqaro iqtisodiy jarayonlarning makroiqtisodiy tendensiyalarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu manbalarda global savdo oqimlari, investitsiya tendensiyalari va mintaqaviy integratsiya jarayonlari chuqur tahlil qilinadi.

Masalan, D. Rodrik (2011) o‘zining “Globalization Paradox” asarida globallashuv jarayonining nafaqat ijobjiy, balki salbiy jihatlarini ham ko‘rsatib, xalqaro iqtisodiy siyosatda milliy manfaatlar muvozanatini saqlash zarurligini ta’kidlaydi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ijobjiy ta’siri haqida esa P. Krugman va M. Obstfeld (2009) o‘zlarining

“International Economics” nomli fundamental asarida savdo nazariyalarini va iqtisodiy o’sish o’rtasidagi bog’liqlikni ilmiy asosda ko’rsatib berganlar.

Raqamli iqtisodiyot va texnologik integratsiyaga oid tadqiqotlarda N. Tapscott va D. Tapscott (2016) tomonidan yozilgan “Blockchain Revolution” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Unda yangi texnologiyalar global iqtisodiy munosabatlarga qanday ta’sir ko’rsatayotgani ochib berilgan. Milliy miqqosda O’zbekistonlik olimlar – masalan, A. Xodjayev, M. Mirzayev, Sh. Islomov va boshqalar – O’zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi ishtiroki, investitsion muhitni yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyadagi roli bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ularning maqolalarida Markaziy Osiyo mintaqasining geoijtisodiy salohiyati va hamkorlik istiqbollari yoritilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, so’nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda ekologik va barqaror rivojlanish masalalariga, xususan “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining xalqaro hamkorlikdagi o’rni haqida ham keng babs yuritilmoxda (Stiglitz, Stern, Sachs, va boshqalar).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada xalqaro iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish tendensiyalarini o’rganish uchun tizimli va kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikka oid mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari (Jahon banki, WTO, UNCTAD, IMF), statistik ma'lumotlar va amaliy tajribalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali turli davrlarda kuzatilgan iqtisodiy integratsiya jarayonlarining dinamikasi va natijalari baholandи.



1-rasm. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari

Turli mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik shakllari, masalan Yevropa Ittifoqi, ASEAN, APEC va boshqa integratsion bloklarning faoliyati tahlil qilinib, ularning samaradorlik darajasi solishtirildi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o’rtasidagi hamkorlik

shakllari o‘zaro taqqoslab o‘rganildi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy nuqtai nazardan o‘rganildi. XX asr oxiridan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan muhim geoiqtisodiy o‘zgarishlar tahlil qilindi. Jahon iqtisodiyotiga oid statistik ma’lumotlar (savdo hajmi, investitsiyalar oqimi, raqamli texnologiyalar darajasi va boshqalar) asosida xalqaro iqtisodiy hamkorlikning miyqosi va rivojlanish sur’atlari raqamlar orqali ko‘rsatib berildi. Jadval, grafik va diagrammalardan foydalanildi.

Muayyan holatlar, mamlakatlararo iqtisodiy bitimlar, mintaqaviy integratsion loyihamlar va O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ishtiroki konkret misollar orqali tasvirlab berildi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning yaqin kelajakdagi rivojlanish istiqbollari, zamonaviy global chaqiriqlar (iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, texnologik o‘zgarishlar) fonida bashorat qilindi va ularning iqtisodiy hamkorlikka mumkin bo‘lgan ta’siri baholandi.

Tadqiqot natijalarini muhokamasi. Tadqiqot natijalari xalqaro iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy bosqichda tub o‘zgarishlarga yuz tutayotganini ko‘rsatdi. Dunyo iqtisodiyotidagi global mashinalar, texnologik taraqqiyot, ekologik barqarorlik talablari va geosiyosiy o‘zgarishlar davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning shaklini va mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Birinchidan, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya kuchayib bormoqda. ASEAN, Yevropa Ittifoqi, Afrika Ittifoqi va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar o‘z a’zolari o‘rtasida savdo-sotiqni erkinlashtirish, investitsiyalar oqimini yengillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga intilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni kuchaytirib, global savdoning geografiyasini kengaytirmoqda. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar xalqaro iqtisodiy hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini shakllantirmoqda. Elektron savdo platformalari, sun’iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va moliyaviy texnologiyalar transchegaraviy aloqalarni soddalashtirib, ayniqsa, kichik va o‘rta bizneslar uchun global bozorga kirishni osonlashtirmoqda. Bu holat an’anaviy iqtisodiy modelga muqobil raqamli modelning shakllanayotganini ko‘rsatadi. Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy hamkorlik tobora barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanmoqda. Iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil energetikaga o‘tish kabi global muammolar davlatlar o‘rtasida ekologik va innovatsion iqtisodiy hamkorlikni jadallashtirmoqda. Bunday tendensiyalar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro tashabbuslar bilan chambarchas bog‘liq. To‘rtinchidan, geosiyosiy vaziyatlar xalqaro iqtisodiy aloqalarning murakkabligiga olib kelmoqda. Ayrim davlatlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan savdo urushlari, iqtisodiy sanksiyalar va siyosiy beqarorlik global iqtisodiyotda ishonch va barqarorlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Bu esa iqtisodiy hamkorlikda diversifikatsiya, yangi hamkorlik formatlariga o‘tish va ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish zaruratinini kuchaytirmoqda. Beshinchidan, O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydonidagi faol ishtiroki tobora ortmoqda. O‘zbekiston so‘nggi yillarda mintaqaviy va global savdo tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirib, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish va eksport hajmini oshirish bo‘yicha faol tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va yashil energetikaga oid loyihalarda xalqaro sheriklik aloqalari sezilarli darajada kuchaymoqda.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, xalqaro iqtisodiy hamkorlik nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki global barqarorlik, texnologik taraqqiyot va inson kapitalining rivojlanishida muhim strategik vositaga aylanmoqda. Kelgusida bu hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun davlatlar o'rtaida institutsional ishonch, shaffoflik, tenglik va manfaatlar muvozanatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamkorlikdagi ishtiroki ham izchil rivojlanmoqda. Mamlakat mintaqaviy va global tashabbuslarda faol qatnashib, o'z iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga intilmoqda. Bu yo'lda savdo-iqtisodiy aloqalarни kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va yangi texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy modelni shakllantirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada samarali tashkil etish uchun global va mintaqaviy darajadagi siyosiy barqarorlik, ochiqlik, shaffoflik va manfaatlarning o'zar uyg'unligini ta'minlash zarur. Bu esa nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan keng ko'lamli iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarga olib keladi.

Xulosasi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro iqtisodiy hamkorlik bugungi globallashuv davrida jahon iqtisodiyotining ajralmas va hal qiluvchi tarkibiy qismiga aylanmoqda. Uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ko'p jihatdan davlatlar o'rtaсидаги o'zaro bog'liqlik, texnologik taraqqiyot, ekologik barqarorlik va geosiyosiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro savdo va investitsiya oqimlarining kengayishi, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va yashil iqtisodiy modelga o'tish kabi yo'nalishlar xalqaro iqtisodiy hamkorlikning asosiy drayverlariga aylangan. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning samaradorligi bevosita ishtirokchi davlatlar o'rtaсидаги siyosiy ishonch, institutsional hamkorlik va iqtisodiy manfaatlar muvozanatiga bog'liq. Bunda xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining faolligi ham muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xodjayev, A. (2021). *Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Mirzayev, M. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasi. *O'zbekiston iqtisodiyoti va innovatsiyalar*, 5(1), 33–40.
3. Islomov, Sh. (2020). *O'zbekiston tashqi savdo siyosati: muammolar va yechimlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Karimov, S. (2019). Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish bosqichlari. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2(3), 27–34.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. (2024). *O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyati bo'yicha tahliliy ma'lumotlar*. Toshkent. <https://strategy.uz>

6. Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo statistik to'plami*. Toshkent. <https://stat.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). *Investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha milliy strategiya*. Toshkent. <https://miit.uz>
8. Bobojonov, A. (2023). O'zbekistonning xalqaro transport-logistika tizimlaridagi ishtiroki. *Iqtisodiyot va boshqaruv*, 4(2), 18–24.
9. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) O'zbekistondagi vakolatxonasi. (2023). *Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha O'zbekistonda erishilgan natijalar*. Toshkent. <https://www.uz.undp.org>
10. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2024). *Xalqaro iqtisodiy hamkorlik sohasidagi tashabbuslar va bitimlar to'plami*. Toshkent. <https://mfa.uz>